

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 69 (1130), 2024-yil 6-aprel, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## IKKI DAVLAT O‘RTASIDA STRATEGIK SHERIKLIK VA AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH BO‘YICHA SAMARALI MULOQOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 5-aprel kuni tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi.



O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, Qozog‘iston bilan o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirish yo‘lidan bormoqda. Xalqlarimiz nafaqat yaqin qo‘shni, balki qardosh sifatida ko‘p qirrali hamkorlikning barcha masalalari bo‘yicha azaldan

bir-birlarini tushunib, qo‘llab-quvvatlab kelgan. Mamlakatlarimiz yaxshi qo‘shni va o‘zaro manfaatli hamkor sifatida taraqqiyot yo‘lidan yelkama-yelka bormoqda.

Ikki davlat xalqaro siyosat masalalarida bir-birini qo‘llab-quvvatlab, xalqaro tashkilotlar — BMT, SHHT, MDH, Iqtisodiy ham-

korlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi va boshqa tashkilotlar doirasida samarali hamkorlik qilmoqda. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik ko‘plab masalalar yuzasidan tomonlarning pozitsiyalari o‘xshash.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 1250 dan ortiq Qozog‘iston korxonasi, Qozog‘istonda esa o‘zbek kapitali ishtirokida 1400 dan ortiq kompaniya faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston — Qozog‘iston hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan yana biri bu — transport kommunikatsiyalari sohasidir. Mamlakatlarimiz avtomobil va temir yo‘llari o‘zaro integratsiyalashgan. Ushbu muhim aloqa tarmog‘i uchinchi davlatlar uchun tranzit vazifasini o‘tayapti. 2023-yilda temir yo‘l transportida xalqaro tashish hajmi 23,46 million tonna, avtomobil transportida 2,1 million tonna, havo transportida esa 90 ming tonnani tashkil etdi.

Ko‘hna Xiva shahrida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Qosim-Jomart Toqayev uchrashuv o‘tkazildi.

Unda O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, har tomonlama amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Kooperatsiya loyihalari jadallashtirish, ilgari oliy darajada erishilgan kelishuvlarga muvofiq investitsiya bitimlari va savdo shartnomalarini amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Davlat rahbarlari mashinasozlik, energetika, transport va logistika, konchilik, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlardagi qo‘shma loyihalarni ilgari surish yuzasidan Bosh vazirlar o‘rinbosarlari, Hukumatlararo komissiya huzuridagi ishchi guruhlarni hamkorlikning hisobotlarini tingladilar.

Prezidentlar tovar ayirib olishni ko‘paytirish, sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha uzoq muddatli dasturiy shakllantirish hamda transport va energetikada infratuzilim loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha aniq topshiriq berildi.

Joriy yilda Sanoat kooperatsiyasi xalqaro markazini tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlarni boshlash, qo‘shma tashqi savdo kompaniyasi faoliyatini kengaytirish muhimligi ta‘kidlandi.

Gumanitar va turizm aloqalarini rivojlantirish, yoshlar ishtirokida madaniyat, ta‘lim va sport sohaslarida qo‘shma tadbirlar o‘tkazish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar, shu jumladan, suv resurslaridan oqilona foydalanish, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi doirasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda Afg‘onistondagi vaziyatning rivojlanishi yuzasidan fikr almashildi.

Ikki va ko‘p tomonlama shakldagi bo‘lajak qo‘shma tadbirlar rejasini ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv har doimgidek ochiq, samimiy va do‘stona muhitda o‘tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Qosim-Jomart Toqayev “Xiva gilamlari” kombinatiga tashrif buyurdilar.

2020-yilda tashkil etilgan qiymati 24 million dollarlik ushbu korxonada yiliga 4,2 million kvadrat metr gilam va gilam mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Mahsulotlar AQSH, Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston va MDHning boshqa mamlakatlariga eksport qilinmoqda.

Kombinatda Germaniya, Belgiya, Avstriya, Shveysariya, Italiya, Fransiya va Turkiyadan keltirilgan zamonaviy uskunalar o‘rnatilgan. 750 nafar ishchi mehnat qilmoqda.

Prezidentlar korxonaning ishlab chiqarish jarayoni va shourumi bilan tanishdilar, kombinat hududida tashkil etilgan “Made in Uzbekistan” brendi ostidagi mahsulotlar ko‘rgazmasini ko‘zdan kechirdilar.

Mas‘ul vazirlik va idoralarga o‘zaro tajriba almashish, kooperatsiya va savdoni rivojlantirishga ko‘rsatma berildi.

Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev hamrohligida qadimgi Xivaning Ichan-qal‘a majmuasi tarixiy obidalari va Nurillaboy saroyini ziyorat qildi.

“Ochiq osmon ostidagi muzey” sifatida tanilgan Xiva yaxlit yodgorlik sifatida Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan yagona shahardir. Bu yerda 120 dan ortiq me‘moriy obidalar joylashgan.

1990-yilda Xiva shahri UNESCOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan, 1997-yilda uning 2500-yilligi nishonlangan. 2020-yilda shahar Turkiy dunyoning madaniy poytaxti deb e‘lon qilindi, 2024-yilda esa islom dunyosining turizm poytaxti bo‘ldi.

Nurillaboy saroyi XX asr boshlarida bunyod etilgan. Majmua madrasa, 100 dan ortiq xonalar, galereyalardan iborat. Saroy xonalarni bezashda nafaqat xivalik mohir ustalar, balki chet ellik rassom-dekoratorlar ham ishtirok etganlar, ular saroyning sharqona qiyofasiga Yevropaning modern uslubini singdirganlar. Xonalar ichki ko‘rinishi, kaminlari, Venetsiya oynalari va tilla suvi yugurtirilgan bronzadan ishlangan, billur ilgakli qandillari bilan ajralib turadi.

Xiva tarixi va uning fan rivojiga qo‘shgan hissasi, shuningdek, hududning boy madaniyati va san‘ati haqidagi hikoyalar qozog‘istonlik mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Shu bilan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning O‘zbekistonga tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

## Xalqaro ekspertlar fikri

## O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON ALOQALARI

Markaziy Osiyodagi vaziyat barqarorligiga xizmat qiladi

Xorijiy ekspertlar Xivada bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi O‘zbekiston — Qozog‘iston sammiti yakunlari haqida

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 5-aprel kuni mamlakatimizda tashrif buyurdi. Ikki davlat rahbarlarining qadimgi Xiva shahridagi uchrashuvi o‘zbek va qozog‘ xalqlarini bog‘lovchi tarixiy ildizlar naqadar teran ekanining ramziy ifodasi bo‘ldi.

Tashrif bir kunlik bo‘lishiga qaramay, uning natijalari mazkur uchrashuvning dolzarbligi va samaradorligini namoyon etdi. Ikki mamlakat yetakchilari O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, har tomonlama amaliy

hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama qildilar.

O‘zbekiston — Qozog‘iston sammiti va uning yakunlari xorijiy ekspertlar tomonidan yuqori baholanmoqda.

▶ Davomi 2-beta

## YANGI O‘ZBEKISTON MAKTAB OSTONASIDAN BOSHLANADI

## NOM QOZONGAY bu bog‘larning har guli, har giyohi

Jamiyat va davlat taraqqiyoti, ertasining qanday bo‘lishi sifatli ta‘limga bog‘liq. Muvaffaqiyat asosini ishtiyoq va harakatdan avval ilm tashkil etadi. Azaliy qonuniyat bu: ilm-fanga suyangan jamiyat va davlat yutqazmaydi. Maktablar esa bo‘lg‘usi olim, akademiklarni tayyorlash va aniqlashda eng muhim bosqichdir. Yurtimizda ham ta‘lim tizimiga katta e‘tibor qaratilyapti. Yangidan yangi o‘quv muassasalari barpo etilyapti, maktablar ta‘mirlanyapti. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ta‘lim tizimi islohotlari eng birinchi vazifa etib belgilandi.

165 bitiruvchidan 163 nafari talaba bo‘ldi

Ayni shu islohotlar samarasini ko‘rish maqsadida davlatimiz rahbari poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 5-umumta‘lim maktabiga tashrif buyurdi. Maktabda amalga oshirilgan ishlar,

o‘quvchilarning ta‘lim olishi, dars jaryonlari bilan tanishdi. Bundan tashqari, bugungi kunga kelib, pedagogikaning sifati tushib borayotganini, bu sharafli kasbning nufuzini tiklash, ularni moddiy rag‘batlantirishga harakat qilinayotganini ta‘kidlandi.

▶ Davomi 5-beta



## 9-aprel — Amir Temur tavallud topgan kun



## Sohibqironning SOLIQ SIYOSATI

bugun ham nafaqat yurtimiz, balki dunyo moliya amaliyotida keng qo‘llanadi



## Daxldorlik

## MA‘RIFATLI JAMIYAT USTUNI

Yuksak ishonchga munosib bo‘lish — oliy burchimiz

Mamlakatimizning yuksak taraqqiyotga erishishi poytaxt Toshkent shahrini har tomonlama zamonaviy megapolisga, dunyodagi eng go‘zal va jozibador shaharlardan biriga aylantirishga chambarchas bog‘liq.

Shu maqsadda Buyuk Britaniya, Singapur, Xitoy va Turkiyadan kelgan mutaxassislar bilan Toshkent shahrining 2045-yilgacha bo‘lgan bosh rejasini loyihasi ishlab chiqildi. Toshkent viloyatining chegaradosh tumanlari hisobidan poytaxt hududini bosqichma-

bosqich kengaytirib, Chirchiq va Qorasuv daryolari oraliqida “Yangi Toshkent” loyihasini amalga oshirish maqsad qilib olindi.

▶ Davomi 3-beta



DAXLDORLIK

# MA'RIFATLI JAMIYAT USTUNI

## Yuksak ishonchga munosib bo'lish — oliy burchimiz



**Abdug'afvor QIRG'IZBOYEV,**  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori, tarix fanlari doktori, professor

“Xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni barpo etish borasidagi xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish, sog'lom, bilimlilar va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida qabul qilingan “O'zbekiston — 2030”

strategiyasida ham ta'lim tizimiga doir islohotlar birinchi o'rinda qayd etilgan.

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari o'tgan yili 5-sentabrda Yangi Toshkent shahrining bosh rejayi loyihasi bilan tanishib, uni ro'yobga chiqarish yuzasidan taklif va tavsiyalar bergan edi. Oradan 7 oy o'tib, 3-aprel kuni ramziy tugmani bosib, Yangi Toshkent hududidagi qator obyektlar qurilishini boshlashga ruxsat berdi.

“Shunday vaqtlar bo'ldiki, pedagogiklik e'tibor susayib ketdi. Hozir bu sharaflar kasbning nufuzini tiklash, ularni moddiy rag'batlantirishga harakat qilaymiz. Yangi Toshkent shahri qurilishini ham Pedagogika universiteti binosiga poydevor qo'yishdan boshlamoqchimiz. Chunki yangi O'zbekistonning birinchi zamini — o'qituvchilar. Shuning uchun ular doim o'z ustida ishlashi, bilim va uslublarini rivojlantirib borishi kerak”, dedi Prezidentimiz.

Ta'kidlanidek, ma'rifatli jamiyatning asosiy poydevori maktab bo'lsa, muallim uning ustundir. Shu bois, Yangi Toshkent shahrida birinchi qatordagi Toshkent davlat pedagogika universitetining yangi kampusi barpo etiladi. U 20 ming talabaga mo'ljallangan o'quv binolari, 5 ming o'rinni yotoqxona, 300 o'rinni bog'cha, 616 o'rinni maktab, 588 o'rinni akademik litsey, zamonaviy sport kompleksi, madaniyat saroyi, amfiteatr va boshqa obyektlari o'z ichiga oladi. Yuqori reytingli xorijiy oliygohlar tajribasi asosida “bog'cha — maktab — universitet” yaxlitligidagi innovatsion pedagogik klaster tashkil etiladi.

Bu yuksak ishonch qariyb 90-yillik tarix va boy pedagogik tajribani jamlagan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining ko'p ming sonli jamoasi

tomonidan katta xursandchilik va yuksak mas'uliyat, shijoat va faxr bilan qabul qilindi. Mazkur g'amxo'rlik va e'tibor universitetimizning 2022-yili pedagogika yo'nalishi bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqishda yetakchi oliy ta'lim muassasasi e'tiborlangani, OTM faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida alohida qarorga binoan, universitetning 2026-yilgacha xalqaro talablarga muvofiq transformatsiya qilinishi hamda maqsadli ko'rsatkichlari belgilab berilganing mantiqiy davomi bo'ldi.

Prezidentimizning “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori bilan o'ta dolzarb va o'zaro uzviy bog'liq uch muhim masala — zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash muammolarini samarali hal etish ko'zda tutilgan.

Qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yo'lida o'tgan davrda ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, xalqaro reytinglarda yuqori ko'rsatkichlarga erishish, ta'lim sifatini oshirishda qator yutuqlar qo'lga kiritildi. Bugunga kelib, universitetda 30 dan ortiq ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan qariyb 25 ming talabaga 4 akademik, 80 dan ziyod fan doktori, 400 dan ortiq fan nomzodi soha sirlarini o'rgatib kelmoqda.

Ilm-fansiz birorta soha rivojlana olmaydi. Shundan kelib chiqib, ta'lim, ayniqsa, pedagogika yo'nalishidagi oliygohlar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga alohida e'tibor, o'zgacha mehr bilan yondashilmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish islohotlari markaziga o'qitish tizimi qo'yilayotgani, xususan, maktab ta'limini tubdan qayta ko'rib chiqish, yangi bosqichga ko'tarish ustuvor vazifalardan biri e'tiborlangani ham bejiz emas. Zotan, xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni barpo etish borasidagi xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish, sog'lom, bilimlilar va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida qabul qilingan “O'zbekiston — 2030” strategiyasida ham ta'lim tizimiga doir islohotlar birinchi o'rinda qayd etilgan.

Keyingi ikki yilda xalqaro va milliy reytinglarda universitetimiz mavqei yanada mustahkamlandi. 2023-yilda xalqaro tan olinganlik darajasi, ilmiy tadqiqotlar rivoji, ta'lim sifati, xalqaro hamkorlik, akademik mobillik bo'yicha Osiyo OTMlari reytingida yetakchi 1000 talikka kirgan mamlakatimizdagi yagona pedagogika oliyog'hi bo'ldi.

Universitet dunyo bo'yicha 1050 ta OTM ishtirok etgan GreenMetric xalqaro reyting agentligi tadqiqotida mamlakatimizdan qatnashgan 41 OTM o'rtasida 4-o'rinni, jahon miqyosida 353-o'rinni egalladi. Yurtimiz oliy ta'lim muassasalari milliy reytingida 39-o'rindan 28-o'ringa ko'tarildi.

Birgina o'tgan yilning o'zida universitet professor-o'qituvchilari va xodimlari 2 ta davlat mukofoti hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliklarining turli darajadagi 26 ta ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Bunday salmoqli ko'rsatkich OTM tarixida ilk bor kuzatildi.

Joriy o'quv yilidan yetakchi 1000 talikka kirgan Rossiyaning Qozon federal universiteti bilan hamkorlikda 2 ta, Qozog'istonning Qarag'anda universiteti bilan birgalikda 1



ta qo'shma dastur yo'lga qo'yilib, qo'shma dasturlar soni 6 taga yetkazildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug'i asosida yurtimizdagi pedagog kadrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil qilindi. Universitetning tegishli kafedralari yetakchi mutaxassislar boshchiligidagi turdosh OTMlardan 100 dan ortiq, yetakchi xorijiy OTMlardan 20 dan ziyod professor-o'qituvchi bilan hamkorlikda bakalavriatning 31 ta'lim yo'nalishi, magistraturaning 30 mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari ishlab chiqildi hamda pedagog kadrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalariga yetkazib berildi.

So'nggi ikki yilda ilmiy salohiyat 38 foizdan 60 foizgacha o'sishiga erishildi. Universitet huzuridagi ilmiy kengashlarda 2021-yili 78 ta, 2022-yili 118 ta dissertatsiya yoqlangan bo'lsa, o'tgan yili bu ko'rsatkich 289 taga yetdi.

Nashr ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada oshdi. Jumladan, xorijiy va mahalliy ilmiy nashrlarda 2021-yili 1012 ta, 2022-yili 1387 ta, 2023-yili 2026 ta maqola chop etildi. Xalqaro va mamlakat miqyosidagi fan olimpiadalar, sport va madaniyat sohasidagi turli tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritayotgan talabalar soni ham ikki barobar ortdi.

Yutuqlar bilan bir qatorda universitet oldida zamon talablariga mos pedagog kadrlar tayyorlash, tizimdagis islohotlar samaradorligini oshirish, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga qator muammolar o'z yechimini kutayotgan edi.

Shuningdek, universitet binolari tarqoq holatda — bir-biridan olisda (eng uzog'i asosiy binodan 40 kilometr masofada) joylashgani, ularda ko'p sig'imli o'quv auditoriyalari mavjud emasligi, zamonaviy sport va madaniyat majmualari yo'qligi, talabalar turar joyiga uzoq talabalarning atigi 10-15 foizi qamrab olingani ta'lim sifatini ta'minlashda qator qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Yana bir muhim masala: o'quvchilarni pedagogiklik maktabning quyi sinflaridan boshlab yo'naltirish va maqsadli tayyorlash, shuningdek, maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish, tajriba-sinov tashkil qilish uchun universitet huzurida maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar va pedagogika kollejlari mavjud emas.

Universitetda pedagogik klaster tashkil etilsa, ya'ni OTM hududida kamida bittadan maktabgacha ta'lim tashkiloti, umumiy o'rta

ta'lim maktabi, akademik litsey hamda kollej tashkil qilinsa, mazkur o'quv muassasalari o'quvchilarni pedagogiklik maqsadli yo'naltirish, talabalarning o'quv va pedagogik amaliyotini tashkil qilish, iqtidorli talabalarning kurs loyihalari, bitiruv-malakaviy, magistrlik ishlari hamda ilmiy tadqiqotchilarning doktorlik dissertatsiyalari bo'yicha tajriba-sinov ishlari tashkil etish orqali nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Yangi Toshkent hududida qurilishi belgilangan kampusda bu masalalar yechimi to'liq hal qilingan. Universitetga ajratilgan qariyb 40 gektar maydonda, yuqorida qayd etib o'tganimizdek, 20 ming o'ringa ega zamonaviy o'quv binolari, 5 ming o'rinni talabalar turar joylari, bog'cha, maktab, akademik litsey, amfiteatr va madaniyat saroyi, sport kompleksi, yopiq va ochiq suv havzalari, xorijlik professor-o'qituvchilar uchun mehmonxonani o'z ichiga olgan kampus qurilishi rejalashtirilgan.

Ushbu kampus azm-u shijoati yoshlarni tarbiyalaydigan, yuqori bilim va malakaga ega, raqobatbardosh yetuk pedagog kadrlarni tayyorlashda universitet jamoasiga qo'shimcha kuch va g'ayrat bag'ishlaydi. Ayni chog'da zimmasiga ulkan vazifa va mas'uliyat ham yuklaydi. Bu yuksak ishonchga munosib bo'lish, siddiqdildan mehnat qilish — oliy burchimiz. Bizni universitetni yurtimizda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining bayroqdoriga aylantirish, dunyodagi yetakchi oliygohlar reytingida munosib o'rinni egallashiga safarbar etadi.

Mulohaza

# MEHNAT MIGRATSIYASI MUAMMOLARI

## Endi xorijga ketayotgan migrantlarning xarajatlari qisman qoplanadi

Mavludana XO'JAYEVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi  
Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi raisi

Yurtimizda har yili o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar muassasalarini qariyb 650 ming yosh bitiradi. Ularning chorak qismi oliy o'quv yurtlariga qabul qilinga, qolgan mustaqil ravishda, jumladan, xorijdan ish qidirib boshlaydi. Ushbu talabni qondirish maqsadida O'zbekiston iqtisodiyotida yiliga o'rtacha 300 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilmoqda.



Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, O'zbekistondan boshqa davlatlarga ish izlab chiqayotgan migrantlarning 43 foizdan ortig'ini o'rta ma'lumotli, qariyb 29 foizini tugallanmagan o'rta ma'lumotli tashkil qiladi. Ularning aksariyati xorijda o'z huquq va qonuniy manfaatlarini to'la himoya qila olmaydi. Bunga, birinchi navbatda, til bilmasligi sabab. Demak, bundan xalosa qilish mumkin, mehnat migratsiyasi masalasida qator muammolar mavjud.

Bu muammoning oldini olish mumkinmi? Albatta, mumkin. Yurtimizda xorijga ishlash uchun ketish istagidagi mehnat migrantlari til va kasb-hunarga o'qitish, xavfsizligi va kafolatlangan ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yilgan.

Ammo aksar yurtidoshlarimiz Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi xizmatlaridan foydalanmaydi. Chunki chiqish tartibiga ko'ra, mehnat migratsiyasi uchun chet elga ketayotgan shaxslarning majburiy kasbiy tayyorgarligi to'g'risida sertifikat talab qilinadi. Shu bois, ko'pchilik fuqarolar xavfsizligini o'ylamay, Rossiya yoki Qozog'istonga borishni afzal ko'radi.

bartaraf etish, chet elga ketishdan oldin yurtidoshlarimizning kasbiy mahoratini oshirish imkoniyatini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mehnat migratsiyasi geografiasini kengaytirish natijasida aniqlangan ish o'rinlarini to'ldirish uchun nomzodlar maqsadli tayyorlanmoqda.

Masalan, chet elga ishlashga ketadiganlar uchun majburiy kasbiy tayyorgarlik tartibi joriy etildi. Talabgorlar ish beruvchining talablariga muvofiqligini maksimal darajada oshirish uchun qator mamlakatlarni o'qitish markazlari ochildi. Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarning huquq va manfaatlarini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Qisqacha aytganda, xorijda ishlashgan fuqarolarga nisbatan munosabat tubdan o'zgarib, mehnat migrantlari bilan mulqot o'rnatildi. Ularning muammo va ehtiyojlarini o'rganish va hal qilish bo'yicha yangi tizim joriy etildi.

Oxirgi ikki yilda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan 70 ming kishi rivojlangan davlatlarga yuborildi. Lekin ayrim odamlar malaka talab qilmaydigan o'lkalarga o'zlari ham mustaqil ravishda ketyapti. Ularning mehnat va yashash sharoitlari, kasbi, daromadi turlicha.

jumladan, iqtisodiy rivojlangan 10 ta davlat ish beruvchilarida O'zbekiston fuqarolarini ishga joylashtirish uchun 160 mingta ish o'rni aniqlandi. Birgina Yevropa davlatlari bilan hamkorlikda 100 mingdan ortiq ish o'rni yaratilgan. Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirishda ham o'z hissasini qo'shmoqda.

Misol uchun, Germaniyaning 23 ta ish beruvchi va rekrutning agentligi bilan 60 mingga yaqin yurtidoshimiz tibbiyot, haydovchilik, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalari to'g'ridan to'g'ri va Ausbildung (dual ta'lim) asosida ishga jalb qilingan. Ularga o'rta 2,1 ming dollar ish haqi taklif qilinayapti.

Bu yil boshida esa Buyuk Britaniyada elektromexanik, qassoblik va qishloq xo'jaligidagi mavsumiy ishlarga 7,5 ming ish o'rni aniqlangan edi. Bugungi kunda yana tibbiyot yo'nalishida 10 mingta ish o'rni talabnomaga olindi. Litva, Latviya, Polsha, Bolgariya, Finlyandiya va Yevropaning boshqa davlatlariga ham 27 mingdan ortiq fuqaroni yuk mashina haydovchiligi, ishlab chiqarish, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalari

ishga yuborish bo'yicha loyihalar amalga oshirilyapti.

Shuningdek, bu yil ilk marotaba Janubiy Koreyaga ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va qurilish sohasiga 15,5 ming ish o'rni kvota olindi. Oylik ish haqi o'rta 2,5 ming dollarni tashkil qiladi. Kanada ham qurilish sohasida 5 mingta ish o'rni buyurtma berdi, soatiga 12 dollardan 30 dollargacha maosh to'lamoqchi.

2023-yilda 38,4 ming fuqaro xorijda ishga joylashtirilgan bo'lsa, 2024-yilning birinchi choragida bu ko'rsatkich 20,9 mingni tashkil etdi. Bu migratsiya sohasida yuritilayotgan keng qamrovli ishlarning amaliy ifodasidir.

Xorijda taklif etilayotgan ish o'rinlarining aksariyatiga qisqa muddatda (o'rta 1-12 oy)

“online-mahalla” axborot tizimiga integratsiya qilinib, bo'sh ish o'rinlari bo'yicha ma'lumotlar va ish beruvchi talablarini to'liq aks ettirgan holda mutazam yangilab borish tizimi joriy etildi.

Ikkinchi yo'nalishda xorijda aniqlangan ish o'rinlarida ishlash istagida bo'lgan, lekin kasbiy malaka yoki chet tilini bilmaydigan fuqarolar aniqlanadi va ular o'qishga jalb qilinib, ish beruvchi talabiga mos ravishda maqsadli tayyorlanadi. Buning uchun 32 ta monomarkaz, 53 ta kasb-hunarga o'qitish va 13 ta qurilish sohasi malakali mutaxassislarini tayyorlash markazi, 10 ta xorijiy tashkilot bilan hamkorlikda respublikamizda 48 ta kurs faoliyati yo'lga qo'yildi.

Yevropa davlatlarida yuk avtomobili haydovchilari uchun aniqlangan 13 mingga yaqin ish o'rini to'ldirish uchun “Vatanparvar” tashkiloti

**ЎЗБЕКISTON STRATEGIYASI 2030**

**“O'zbekiston — 2030” strategiyasida ham tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Demak, xorijda ishlashni maqsad qilganlarga til va kasb-hunar o'rganish, ishchi viza, yo'lkira, umuman, barchasi uchun kompleks yordam ko'rsatiladi.**

ishchi kuchi yetkazib berish talab etilmoqda. Shu sababli hozir ishlar ikkita yo'nalishda tashkil qilingan. Birinchi yo'nalish — qisqa muddatda to'ldirilishi talab etiladigan ish o'rinlari “Xorijga ish — mahalladan” tamoyilida individual ishlagan holda, ish beruvchilar talabiga mos keladigan kasbiy malaka va chet tilni bilish darajasiga ega nomzodlarni tekzor topish orqali to'ldiriladi. Buning uchun “labor-migration” dasturi

bilan hamkorlik qilinmoqda. Hozir mingga yaqin fuqaro ushbu tashkilot kurslarida o'qitilmoqda. Shunga qaramay, xorijda aniqlangan ish o'rinlariga nomzodlar yetishmayapti. Shu sababli joriy yil 2-aprel kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda Prezidentimiz yo'nalishdagi ishlarni tashkil etishda yangicha tizim yaratilishi bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi. Unga ko'ra, 27 ta professional ta'lim

OCHIQ BUDJET OpenBudget

# BIRLASHGAN — O'ZAR...

## “Tashabbusli budget” loyihasining dastlabki mavsumi g'oliblari e'lon qilindi

Abdurauf QORJOV, shaharlovchi

“Ochiq budget” portali ma'lumotlariga ko'ra, “Tashabbusli budget” loyihasining birinchi mavsumi uchun 9443 ta mahalla fuqarolar yig'inidan 35 ming 575 tashabbus kelib tushgan, shundan 28 ming 919 tasi saralash bosqichiga muvaffaqiyatli o'tgan. Bu ilgari surilgan loyihalarning 80 foizdan ortiqrog'i ovozga qo'yilganini anglatadi.

Kecha ovoz berish jarayoni nihoyasiga yetdi. Bu bosqich belgilanganidek, 13-mart kuni emas, “Ochiq budget” portalida ayrim texnik nosozlik kuzatilgan bo'lsa, 16-martdan boshlandi va ko'zda tutilganidek 20 kun davom etdi. Ovoz berish jarayonida 11,7 million aholi ishtirok etdi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, dastlabki mavsum uchun o'tkazilgan tanlovda 2254 ta mahalla bo'yicha 2770 loyiha g'olib bo'ldi...

Ilgari surilgan takliflarning 31 foizi ichki yo'llar, 30 foizi mahalla hududini obodonlashtirish, 14 foizi maktablar, 12 foizi bog'chalar va tibbiyot muassasalarini ta'mirlash bo'yicha tushgan. G'olib bo'lgan loyihalar orasida ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash turgani (446 ta) eng og'irli yo'nalis hal-hamon shu soha ekanini namoyon etadi.

G'olib bo'lgan loyihalar orasida ikkinchi o'rinda umumta'lim maktablari, uchinchi o'rinda sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash tadbirlari turibdi. Qolganlarini boshqa ijtimoiy inshootlar tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar aynan qaysi sohalar ko'proq e'tiborga muhtojligiga tashxis qo'yib beryapti. Demak, birinchi mavsum g'oliblari aniqlandi. U yana bir karar “Ochiq budget” loyihalarining ko'lami tobora kengayib, ajratilayotgan mablag'lar miqdori ortib borayotganini ko'rsatayapti.

Iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosari Ahabbek Haydarovning qayd etishicha, “Tashabbusli budget” uchun 2024-yilda ajratilgan mablag'larning umumiy miqdori 8 trillion so'mni tashkil etadi. Bu o'tgan yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p. Natijada g'olib loyihalar soni ham avvalgi yillarga nisbatan 1,5-2 barobar oshadi, mahallalarda ko'proq muammolarni hal etish imkoniyati yaratiladi. Birinchi mavsumda ilgari surilgan loyihalarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'larga kelganda, uning umumiy miqdori 3 trillion 373 milliard 305 million so'mdan ziyodroq. Bunda har bir loyiha uchun eng yuqori qiymat 1 milliard 360 million so'mni tashkil etadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga 2024-yilda respublika budgetidan 91,9 trillion so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, shundan vazirlik xarajatlari tarkibida 18,1 trillion so'm keyinchalik qayta taqsimlanadigan ayrim mablag'lar nazarda tutilgan. Qayta taqsimlanadigan ushbu mablag'lar qatorida “Tashabbusli budget” jarayonida g'olib bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish uchun qo'shimcha tarzda 2,1 trillion so'm ajratilishi belgilangan.

Xo'sh, moliyaviy mablag'lar to'la kafolatlangan ekan, “Tashabbusli budget” yakuniga yetgan birinchi mavsumi avvalgi yillardagidan qanday jihatlari bilan farqli bo'ldi?

— Eng avvalo, Prezidentimiz shu yil 21-fevral kuni imzolagan “O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi farmonida 2024-yil mart oyidan tashabbusli budgetlashtirish jarayonida ovoz berishda sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida “bir fuqaro — bir ovoz” tizimi joriy etilishi belgilandi, — deydi iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent Abdurahmat Boymurodov.

— Unga ko'ra, raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ovoz berish jarayonida fuqarolarni identifikatsiya qilish hamda bir fuqaro tomonidan berilgan bitta ovozni qabul qilish tizimi yo'lga qo'yildi.

Buning uchun fuqarolar “Ochiq budget” portali orqali ovoz berayotganda ularning ovoz berayotgan raqamlari qaysi shaxsga rasmiylashtirilganiga aniqlik kiritiladi. Bu masala bo'yicha mamlakatimizda faoliyat yuritib kelayotgan aloqa operatorlari bilan ishlar yo'lga qo'yilgan. Bu bir nechta sim-kartasi bo'lgan fuqarolarning ko'p marta ovoz berishiga chek qo'yadi. Ya'ni fuqaroning bir nechta sim-kartasi bo'lsa, faqat bittasi orqali bergan ovozi qabul qilinadi. Agar boshqa sim-karta orqali ovoz beradigan bo'lsa, unda sim-karta egasini aniqlash tizimi orqali ikkinchi bor ovoz berishi avtomatik tarzda rad etiladi.

— O'zgarishlardan yana biri bu — ortiqcha ovoragarchiliklarni bartaraf etish maqsadida “Mening yo'lim” loyihasi “Tashabbusli budget”ning birinchi mavsumiga birlashtirilgan holda o'tkazildi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'lim boshlig'i Azimjon Hasanov. — Shu yil birinchi mavsumidan boshlab “Mening yo'lim” loyihasi uchun ajratilgan mablag'lar ham fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga yo'naltirildi va ular doirasida g'olib loyihalar aniqlandi.

2024-yilda mazkur dastur uchun kamida 800 milliard so'm ajratilishi belgilangan. Demak, ajratilayotgan mablag'lar bu yo'nalisda avvalgi yilga nisbatan qariyb ikki barobar oshyapti. Qolaversa, “Tashabbusli budget” va “Mening yo'lim” loyihalari doirasida ichki yo'llarning kadastr hujjatlari tayyorlab beriladi.

Demak, “Tashabbusli budget” va “Mening yo'lim” loyihalari ajratiladigan mablag'lar fuqarolar tashabbuslari jamg'armasida bir joyda jamlanadi hamda ovoz berish yakunlariga ko'ra, eng ko'p ovoz to'plagan takliflar tepadan pastga qarab saralanadi. Bunda “Tashabbusli budget” uchun alohida, “Mening yo'lim” uchun alohida kvotalar belgilanmaydi.

2024-yil 1-apreldan boshlab “Tashabbusli budget” doirasidagi loyihalarni tashabbuskorlar, mahalla raisi va faollarining ish sifati yuzasidan roziligi olinganidan keyingina foydalanishga qabul qilish tartibi joriy etiladi.



2024-yil 1-avgustga qadar esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bu borada amalga oshirilayotgan loyihalar yuzasidan davlat idoralari va tashkilotlaridan ma'lumot olish, mablag'larning o'z vaqtida va to'liq ajratilishini talab qilish hamda loyihalar tatbiq etilishini jamoatchilik nazoratidan o'tkazish imkoniyati yaratiladi.

Ma'lumki, amaldagi qonunchilikka asosan, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishda respublika budgetidan har yili ajratiladigan mablag'larning kamida 50 foizi “Yashil bog” va “Yashil jamoat parklari”ni tashkil qilish uchun “Ochiq budget” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan “Mening bog'im” loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Bunda Vazirlar Mahkamasining joriy yil 26-martdagi qarori bilan tasdiqlangan tartibga binoan, “Yashil bog” va “Yashil jamoat parklari”ni tashkil qilish bo'yicha yer maydoni manzili va rasmlari ko'rsatilgan holda, qiymati 250 million so'mdan oshmagan tashabbus

bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasi muhokamada bo'lib turibdi. Mazkur hujjat yetti maddadan iborat bo'lib, unda ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash maqsadida davlat budgeti daromadlari va xarajatlari, budgetdan tashqari jamg'armalar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ajratilgan transferlar harakati haqidagi ma'lumotlar bo'yicha oylik hisobot joriy qilinishi va ularning “Ochiq budget” portaliga joylashtirilishi belgilanmoqda. “Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”

loyihalarga daxldor bo'lib, bunyod qilingan infratuzilmadan faxrlanib, ularni asrab-avaylab foydalanyapti”.

Haqiqatan, “Ochiq budget” va uning asosiy tarkibiy qismiga aylangan “Tashabbusli budget” bo'limidagi loyihalarga ishonch va e'tibor katta. Bu loyiha fuqarolarning budget mablag'larini nafaqat nazorat qilishi, balki ularni shakllantirish jarayonidan boshlab qanday sarflanishida ham qatnashishi uchun imkoniyat yaratadi. Shu

Bunday salbiy holatlarning oldini olish maqsadida qat'iy choralar ko'rishning vaqti kelmadi, degan fikrlar ham o'rta ta'lim tashlanayapti. Masalan, sportda kelishilgan o'yinlar uchun o'ta og'ir jazolar ko'zda tutilgan. Yoki qizil chiroqdan o'tgan haydovchi katta miqdorda jarimaga tortiladi. Oliy ta'lim muassasasiga test topshirish jarayonida “shpargalka”dan foydalangan abituriyent kirish imtihonlaridan chetlashtiriladi...

— Bugungi kunda tashabbuskor fuqarolarimiz tomonidan ovoz berish jarayonida iste'mol vositalari evaziga ovoz yig'ish holatlari ko'p kuzatilmoqda, — deydi Azimjon Hasanov. — Avvalo, ushbu holat joylarda mavjud ijtimoiy muammolarning naqadar dolzarbligidan va fuqarolarning ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga bo'lgan ehtiyoji yuqoriligidan dalolat beradi.

So'nggi vaqtlarda fuqarolar tomonidan “Tashabbusli budget” jarayonida fuqarolarning hududiy jihatdan imkoniyatlarini cheklash va ovoz berish tizimiga doir turli e'tirozlar, taklif va tanqidlar ham bildirilmoqda. Albatta, tanqidlar kelgusi muvaffaqiyatlar va yaxshi natijalar uchun poydevor vazifasini o'taydi.

Ayni vaqtda mutaxassislar tomonidan “Ochiq budget” axborot portalida yuzaga kelayotgan kamchiliklarni kechiktirmasdan bartaraf etish hamda ushbu tizimni yanada takomillashtirish va fuqarolar uchun qulay mexanizmi shakllantirish bo'yicha zarur choralar ko'rilib, amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning 2023-yil 10-apreldagi “Tashabbusli budgetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga ko'ra, bu jarayon doirasida budget tashkilotlarining rahbarlari xodimlarga majburiy ovoz yig'ish bo'yicha topshiriq berishi taqablanadi. Ovoz yig'ishga majburlash xodimlarni majburiy mehnatga jalb qilish sifatida tasniflanadi.

Fuqarolar, ayniqsa, budget tashkilotlari xodimlari majburiy ovoz yig'ishga duch kelsa, portaldan murojaat qoldirish imkoniyati yaratilgan. Kelib tushgan murojaatlar o'rganib chiqish va bartaraf etish uchun tegishli vakolatli idoralarga yuborilmoqda.

Fikrimizcha, loyihalarga ovoz berish jarayoni fuqarolarning ijtimoiy ongi bilan ham chambarchas bog'liq. Har birimiz ixtiyoriy ovoz berish huquqiga egamiz. Undan xolis va haqqoniy foydalanish o'zimizga havola qilinayotgan, buning uchun barcha sharoitlar yaratilayotgan ekan, ovoz berishga mas'uliyat va uyg'oqlik bilan yondashish talab etiladi.

Shu o'rinda xalqimizning “Birlashgan — o'zar...”, “Hamkorlikda hikmat ko'p” degan naqlari yodga tushadi. “Tashabbusli budget”ning muhim jihatlardan yana biri ham shunda. Fuqarolarning birlashishi va hamkorligi joylardagi dolzarb muammolar hal etilishiga keng yo'l ochib berdi. Shu bois, mazkur loyiha asosida obodlikka yuz tutgan ko'cha, maktab, bog'cha va boshqa ijtimoiy inshootlarning qad-qimmatini ham, ahamiyatini ham katta bo'ladi, odamlar o'zlari hissa qo'shgan uchun, albatta, asrab-avaylaydi.




mablag'larning boshqa maqsadlarga ishlaltilishi esa taqablanmoqda.

Bundan tashqari, qonun loyihasida tuman va shaharlar hokimliklariga har chorakda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha

bois, aholining katta qismi ishtirok etib, o'z mahallasidagi dolzarb ijtimoiy masalalar hal etilishiga faol hissa qo'shib kelyapti. Masalan, 2021-yilda ovoz berish jarayonida 1 million 200 ming aholi ishtirok etgan bo'lsa, joriy yil 1-mavsumning o'zida ularning soni 11,7 millionga yetdi.

2021-2023-yillarda “Tashabbusli budget” jarayoni uchun davlat budgetidan qariyb 8 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Mazkur mablag'lar doirasida jami o'n mingga yaqin loyiha g'olib deb topilib, besh mingdan ortiq mahallada ijtimoiy muammolar bartaraf etilishiga erishildi. Chunki dastur doirasida budget mablag'lari aynan jamoatchilik fikri asosida fuqarolar tomonidan dolzarb deb topilgan muammolarni hal etish uchun o'z vaqtida yo'naltirilib, ular ustidan jamoatchilik nazorati ham kuchayib boryapti.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Tashabbusli loyihalarga qiziqish va ular o'z vaqtida moliyaviy ta'minlanayotgani yaxshi. Lekin bu jarayonda avvalgi yillarda kuzatilgan muammo va kamchiliklar bu mavsum ham nega yana takrorlandi? Yana avvalgiday odamlar ko'p to'planadigan joylarda ovoz olish uchun pul va iste'mol tovarlari taklif qilindi, qiymati avvalgi yillarga nisbatan karrasiga oshdi. Jumladan, kimdir 10 ta ovozga bitta qo'zi va da qilgan bo'lsa, boshqasi 50 ta ovoz uchun qo'chqor atadi. Hatto yana biri 1000 ta ovoz uchun avtomobil sovg'a, deb e'lon qildi. Ayrim tuman hokimliklarining ovoz yig'ishni “tashkil etish”ga doir bosimlari ijtimoiy tarmoqlarda tarqaldi va hokoz.



bildiriladi. “Mening bog'im” loyihalari ovoz berish jarayoni har yili yanvar-fevral oylarida o'tkaziladi.

Mavzuga doir yaqin istiqboldagi huquqiy yangiliklar haqida gap borganida, ayni paytda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan budget jarayoni hamda ichki audit faoliyatining takomillashtirilishi munosabati

ma'lumotlarni o'z rasmiy saytiga hamda “Ochiq budget” axborot portaliga joylashtirish majburiyati yuklanmoqda.

Prezidentimiz e'tirof etganidek, “Bizning tajribamizda bu ham birinchi marta va juda katta ijobiy natija beryapti. Odamlar shu jarayonlarda bevosita o'zlari ishtirok etyapti. Eng muhimi, odamlar bunday



Ba'zan obodonlashtirish boshqarmasida ishlovchi ayoli kishilarning o'ziga munosabati dill og'rib aytganini eshitgan O'ktam aka biror ko'ngilsizlik bo'libdimikan, degan xayol bilan go'shakka qattiq va chuqur xo'rsiniq bilan quloq tutdi.

— Gulbahor Mengnorova “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi, — degan xabar aytiladi narigi tomondan.

— Hazillashgani odam quribdimi? — go'shakni qo'ydi O'ktam aka bir oz jahllanib.

— Kim ekan? — so'radi Gulbahor opa.

— Kimdir ertaga viloyat hokimligiga borishini, davlat mukofoti olganingni aytib, hazil qilyapti, — dedi eri.

Shu vaqt yana telefon jiringlagach, jahli chiqqan otaxon go'shakni jahd bilan ko'targandi, endi boshqa ovoz undan hol-ahvol so'radi. Tumandagi ko'pchilik taniyidigan mehnat faxriysi Tursunboy To'raboyev ekan. Tabriklay ketdi.

## INSON QADRI UCHUN

# ORASTA MAKONDA FAROVONLIK HUKMRON

Angor tumani obodonlashtirish boshqarmasi uchastka ustasi Gulbahor Mengnorovning telefoni bemahol jiringladi. — Eshitaman! — dedi go'shakni ko'targan Gulbahor ayaning turmush o'rtog'i O'ktam Quvvatov. — Opa kerak edi... Turmush o'rtog'i bo'lsangiz, ertaga barvaqt viloyat hokimligi binosiga kelsin!

— Hazilni qo'ying, kelningiz obodonlashtirishda ishlaydi-ku, axir!

— Inson qadri yuksalayotgani dalili shu-da, O'ktamboy. Obodonlashtirishda ishlaydi degani, davlatning e'tibori va e'tirofidan uzoq, mosuvo degani emas. Har tomonlama maqbul, halol ish aynan shu, — dedi Tursunboy ota.

O'ktam ota keyin bildiki, rahbariyat ayoliga fidoyi faoliyati uchun doim sizga mukofot berish kerak, deya yarim hazil, yarim chin aytib yurgan. Ammo toki Gulbahor Mengnorova tadbir boshlanguncha bunga ishonmadi.

Ertasiga Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan davlatimizning yuksak mukofotlariga munosib ko'rilgan surxondaryolik uch kishiga viloyat hokimi tomonidan orden va medallar topshirildi.

Ular orasida “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan angorlik Gulbahor Mengnorova ham bor edi.

O'tiz yildan buyon odamlar nazdida “ko'cha supuruvchi” Gulbahor opa o'zida yo'q xursand bo'ldi. Mukofot ko'p asrli an'analarni asrab-avaylash, xalqimiz orasida do'stik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, yosh avlodni vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ishlariga qo'shgan munosib hissasi uchun berilganini eshitganida, ko'ngli tog'dek ko'tarildi. Ko'ziga yosh keldi.

— Obodlik ko'ngildan boshlanadi. Zero, orasta makonda ish unumli va barakali bo'lish bilan birga farovonlik hukm suradi. Gulbahor Mengnorova ham mehnati rohatini ko'chalar ozodaligi yuz tutgan obodligida ko'radi. Umringin ko'p qismini obodonlashtirish ishlariga bag'ishlagan Gulbahorni go'zallik yaratuvcisi, deb bemalol ayta olamiz, — deydi mehnat faxriysi Tursunboy To'raboyev.

Yurt ko'rki va ozodaligi uchun har kuni erta tongdan ishga otlanuvchi bu ayol o'tiz yildan buyon obodonlashtirish sohasida mehnat qiladi. Ayni paytda Angor tumani obodonlashtirish boshqarmasi uchastka ustasi bo'lib ishlayotganidan faxrlanadi.

— Ishimiz shu — oddiy. Ko'chalarni tozalaymiz, supuramiz. Qarovsiz joylarni chopib, manzarali gullar va daraxtlar ekamiz. Binolar oldini chiroyli qilamiz, — deydi maqolamiz qahramoni. — “Yashil makon” loyihasi, “Obod xonadon — obod ko'cha — obod mahalla” dasturlari ishimizni ancha osonlashtirdi. Butun elu yurt birlashib, bizga yordamga kelyapti.

Gulbahor Mengnorova bugunidan mamnun, ertasidan ko'ngli to'q. Nimaiki yutuqlarga erishgan bo'lsa, albatta, halol mehnati va oila a'zolarining qo'llab-quvvatlashi ortidan ekanini aytadi.

Turmush o'rtog'i O'ktam Quvvatov bilan ikki qiz, bir o'g'lini voyaga yetkazdi. Qizlarini turmushga berib,



o'g'lini uylantirdi. Hayot yo'llarida uni doimo turmush o'rtog'i qo'llab-quvvatlaydi.

— Fidoyi va halol ishlangiz, davlatning e'tiboriga tushasiz. Odatda odamlar shunday ishlaridan uyaladi. Hech qachon na men, na o'zi, na farzandlari uyaladi. U xonadonni ham chinidek toza qilib qo'yadi. Ko'cha-ko'yni xuddi o'z uyidek orasta qilishga intiladi, — deydi turmush o'rtog'i O'ktam Quvvatov.

Bugun yurtimizda barcha ishlohtar markazida inson qadri ulug'lashga qaratilgan ezgu g'oya mujassam. Bunga yuqorida halol va fidoyi faoliyati ortidan davlat tomonidan e'tirof etilgan yurdoshimiz hayoti bir misol.

Sarvar TO'RAYEV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

YANGI O'ZBEKISTON MAKTAB OSTONASIDAN BOSHLANADI

Sharoit, imkoniyat bor joyda odam o'zini qulay his qiladi, ko'tarinki kayfiyatda yuradi, bu esa uni harakatga, intilishga undaydi. 5-maktabda o'quvchilarning ilm olishiga yaratib berilgan sharoitlar ham qisqa fursatda o'zini oqladi: o'tgan o'quv yilida maktabning 165 bitiruvchisidan 163 nafari oliy o'quv yurtlariga talabalikka qabul qilindi. Dars jarayonlari yaxshi tashkil etilgani, o'quv dargohi zarur texnologiyalar bilan jihozlangani, o'qituvchilar o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashayotganining yaqqol namunasi bu.

NOM QOZONGAY

bu bog'larning har guli, har giyohi

Boshlanishi 1-betda

Mazkur maktab avval 960 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilar uchun 3 smenada dars tashkil etilgan. 2 mingdan ortiq o'quvchi tahsil olar edi. Bu esa o'quvchiyu o'qituvchilarga qator muammo tug'dirdi. Shu bois, maktab o'tgan yili rekonstruksiya qilindi, qo'shimcha binolar qurildi, zamonaviy o'quv qurollari bilan ta'minlanib, 1700 o'quvchini o'z bag'rida jamlaydigan bo'ldi.

Sharoit, imkoniyat bor joyda odam o'zini qulay his qiladi, ko'tarinki kayfiyatda yuradi, bu esa uni harakatga, intilishga undaydi. 5-maktabda o'quvchilarning ilm olishiga yaratib berilgan sharoitlar ham qisqa fursatda o'zini oqladi: o'tgan o'quv yilida maktabning 165 bitiruvchisidan 163 nafari oliy o'quv yurtlariga talabalikka qabul qilindi. Dars jarayonlari yaxshi tashkil etilgani, o'quv dargohi zarur texnologiyalar bilan jihozlangani, o'qituvchilar o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashayotganining yaqqol namunasi bu. Qolgan ikki o'quvchining taqdiri ko'p qatori bizni ham qiziqirdi. Ta'kidlanishicha, yoshlar kasb o'rganish maqsadida oliy o'quv yurtlariga o'z xohishi bilan hujjat topshirmagan.

Maktabimiz o'tgan yili qo'shimcha 1700 o'rinni qilib ta'mirlandi, — deydi maktab direktori Nargiza Hidoyatova. — Avval o'quvchi soni ko'p bo'lgani uchun dars jarayonlarida qiynalardik. Bugun o'quvchilarning ilm olishi uchun yaratilgan sharoitlar bizga ancha qo'l kelmoqda. Dars jarayonlarini o'quvchilar va ularning otionalari bilan birgalikda olib boramiz, shu sababli bugun o'quvchilarning deyarli barchasi maktabda olgan bilimlari bilan oliy o'quv yurtlariga kiryaпти. Prezidentimizning maktabimizga tashrifini bizni benuhoya quvontirdi. Farzandlarimizning ilm olishi uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga harakat qilamiz. O'tgan yili bitiruvchilarning OTMlarga hujjat topshirib, yuqori natija qayd etdi. O'qituvchilarning o'quvchilarga shunchaki o'qituvchi bo'lgani uchun ham o'tmaydi. O'quvchilarni o'z farzandidek ko'radi. Shuningdek, endi ustozlarimiz o'z bilimini yanada mustahkamlash uchun TALIS (The Teaching and Learning



International Survey) o'qitish va ta'lim olish muhitini o'rganish xalqaro tadqiqoti bo'yicha o'qitilmoqda. Bu bilan ularning bilim darajasi oshyapti. Dars jarayonlari ham yangicha uslubda tashkil etilyapti. Bundan tashqari, o'quvchilarning qo'shimcha bilim olishi uchun darsdan so'ng to'garaklar tashkil etilgan. Matematika, fizika, ingliz tili, kimyo fanlarini o'quvchilar darsdan so'ng qolib o'rganyapti. Istiqboldagi maqsadlarimiz yanada ulkan. Darslarimizni xorij tajribalari asosida tashkil qilib, ta'lim sifatini Prezident maktablari darajasiga tenglashtirishni ko'zlayamiz. Ingliz faylasufi Frensis Bekon "Bilim bu — kuch", degan edi. Darhaqiqat, ilmiy inson hayotda doimo o'z o'rniga va hurmatga ega bo'ladi. Biroq ilm o'rganishning o'zi yetarli emas.

"Menga ayting va men unutaman, menga o'rgating va balki men eslab qolarman, meni shunga jalb qiling va men o'rganaman", degan edi Konfutsiy. Demak, inson nafaqat o'rganishi, balki egallagan bilimlarini hayotida qo'llashi, ularni boshqalarga ham o'rgatishi muhimdir.

Fanlarni yaxshi o'zlashtirib, o'zimizga kerakli bilimlarni olishimiz uchun maktabimizda barcha sharoitlar yaratib berilgan, — deydi maktabning 11-sinf o'quvchisi Azizxon Akmalxo'jayev. — Darsdan so'ng maktabda qolib, o'zimiz qiziqqan fanlarni ko'zimizga o'rganishimiz uchun ham imkoniyatlar bor. Albatta, bu usul bizga ancha foyda keltiryapti. Sababi, men ingliz tilidan maktabda olgan bilimim bilan IELTS sertifikatini qo'lga kiritdim. Shuningdek, ustozlarimiz biz bilan xuddi o'z ota-onamizdek ishlaydi. Bizga imkon qadar ko'proq bilim berishga harakat qiladi. Kurs yoki repetitorlarga borishimni xohlamaydi va fanlarni chuqur o'rganmoqchi bo'lganlarga darsdan so'ng qo'shimcha mashg'ulotlar o'tiladi. Bu esa bizning bilim darajamiz o'sishiga va repetitorsiz ham oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishimizga katta yordam bermoqda.

San'at ma'naviy boy avlodni tarbiyalaydi

San'at ilm olishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun qadimdan bobolarimiz hech bo'lmaganda bitta cholg'u asbobi chalishni o'rgangan, avlodlarni ham bunga rag'batlantirgan.

Hech e'tibor berganmisiz, yoshi ulug' otaxon va onaxonlarimizning uylari to'rida rubob yoki doira osig'liq turadi. Ular ana shu cholg'u asboblari ovozdin rohatlangan, ma'naviy ozuqa olgan.

Bugun ham davlatimiz tomonidan ana shu an'analarni davom ettirish yo'lga qo'yilmoqda. Joylarda san'at va musiqa maktablari tashkil etilyapti.

Prezidentimiz Yunusobod tumaniga tashrif davomida o'tgan yili qurib foydalanishga topshirilgan 1-bolalar musiqa va san'at maktabi bilan tanishar ekan, san'at ma'naviy boy avlodni tarbiyalashga xizmat qilishini, bunga mehmi bolalikdan boshlab shakllantirish zarurligini ta'kidladi.

Maktab o'tgan yili respublika byudjeti mablag'lari hisobidan bunoyd etilgan. 250 o'ringa mo'ljallangan. O'quvchilar ijodiy imtihonlar asosida saralanadi.

Maktabimiz cholg'u asboblari va yangi o'quv qo'llanmalari hamda darsliklar bilan ta'minlangan mamlakatimizdagi yagona san'at va musiqa maktabidir, — deydi maktab direktori Fazliddin Islomov. — Muassasamizga 7 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarni qabul qilib, ularga san'at ilmini o'rgatamiz. Joriy yilda 1-sinfga 145 o'g'il-qizni qabul qildik. Ularga individual tarzda darslar o'tiladi. Ya'ni har bir o'quvchiga bittadan o'qituvchi brikirilgan bo'lib, o'quvchilar 12 yo'nalish bo'yicha maktabdan tashqari ta'lim oladi. "Maktabimizni davlatimiz rahbari ko'rdi, bo'ldi", deyish yo'q. Biz o'z ustimizda ishlab, ta'lim qamrovini kengaytirmoqchimiz. Har bir maktabga borib, konsertlar qo'yishni, boshqa maktablarda san'atga qiziquvchilar bo'lsa, ularga ham musiqa sirilarini o'rgatishni rejalashtirganmiz.

Tashrif davomida davlatimiz rahbari san'at maktablari bilan oliygohlar, teatrlar va boshqa madaniyat muassasalarining hamkorligi tizimini kuchaytirish vazifasini qo'ydi.

Bir so'z bilan aytganda, ta'limga bu kabi e'tibor erangi taraqqiyotga poydevordir.

Mansurbek JABBOROV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ta'lim taraqqiyoti

ZAMONAVIY KADR tashkilot imijini belgilaydi

Ziyoda BEGMATOVA, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti bo'lim boshlig'i

"Inson qadrini ulug'lash" g'oyasi yuksak maqsad sifatida hayotimizning barcha jabhalariga kirib keldi. Bu har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir. Yoshlar siyosati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimi mahallalar, sifatli ta'lim, malakali kadrlar tayyorlash kabi muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, malakali kadrlar tayyorlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yuritilayotgan siyosatimizda, xususan, davlat qonunlari va dasturlarida, Prezidentimiz farmon va qarorlarida aks etib borayotir.

"Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir", deb ta'kidlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining umumiy qoidalari. Mazkur qoida fan-texnika, ishlab chiqarish jadal rivojlanib borayotgan, turmushimizga ham yangidan yangi turli texnik vositalar kirib kelayotgan bugungi kunda yanada dolzarb tus olgan. Mamlakatimizdagi keng ko'lami islohotlar samarasi ham bevosita yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan bog'liq. Bu yo'nalishda

istiqbolli dasturlar ishlab chiqilib, ular zamon talablari asosida amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham dastlabki maqsad sifatida "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yogga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" belgilangani bejiz emas. Zero, har qanday tashkilot, muassasa, korxonalar rivojini, avvalo, inson resurslariga bog'liq e'tiboriga bog'liq. Inson resurslari esa tashkilotda ishlaydigan xodimlar, mutaxassislar sanaladi. Har bir xodimning yuqori professional darajaga, malakaga ega bo'lishi bugungi davrning asosiy talablaridan biridir. Inson resurslarini, xususan, mutaxassislar malakasini oshirish tizimli faoliyat bo'lib, ularning

potensial qobiliyatini doimiy rag'batlantirishni nazarda tutadi. Albatta, bu nazariy xulosalar shunchaki kuzatishlar emas, ilmiy-amaliy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Tashkilotlarga chuqur bilimga ega professionalni tanlab olish personalni rivojlantirishning asosi sanaladi. Mehnat unumdorligining o'sishi, tashkilot foydaliligini oshirish uchun personal, ya'ni har bir xodim salohiyatini oshirish ustida muntazam ishlab talab etiladi. Ilmiy tilda "personalni rivojlantirish" degan atama qabul qilingan bo'lib, bundan maqsad tashkilotni yaxshi tayyorlangan va malakali xodimlar bilan ta'minlashdir. Tashkilot yoki korxonalar rivojlanishi faqat moliyaga, ya'ni o'z yo'nalishida to'kis moddiy-texnik ta'minotga ega bo'lishi bilangina bog'liq emas. Chunki tegishli mablag'ni maqsadli yo'naltirish, moddiy-texnik bazadan samarali foydalanish, so'zsiz, rahbarga, xodimga, qisqacha aytganda, individga bog'liq. Tashkilotning o'ziga xos an'analarini shakllantirish, axloqiy-psixologik muhitni yaxshilash, barcha xodimlarga o'qish va xizmat bo'yicha ko'tarilish uchun bir xil imkoniyatlar taqdim etish, kadrlarga ehtiyoj va ularning qo'nimsizligini pasaytirish, mehnat unumdorligi va ish sifatini oshirish, yosh, iste'dodli xodimlar va rahbar kadrlar tayyorlash personalni rivojlantirishning vazifalari hisoblanadi. Bugun texnologiyalar va texnika asri.



Yangi texnologiyalar esa hamma sohalarga uluksiz tatbiq etilmoqda. Chunki taraqqiyotni jadalashtirish ana shu texnologiyadan qancha va qay yo'sinda foydalanishimizga bog'liq. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi vaqtda O'zbekistonda beshinchi avlod texnologiyalari ulushi qariyb 1-3 foizni tashkil etadi. Mamlakatimiz oldida 10-15 yil ichida oltinchi texnologik davlatlar qatoriga kirish vazifasi turibdi. Bu esa, xususan, inson resurslarini boshqarishda jiddiy o'zgarishlarni talab qiladi. Yuqori texnologiyalar rivoji, umumiy texnologik taraqqiyot korxonalar yoki tashkilot, kompaniya xodimlarini zamonaviy mehnat sharoitlariga moslashtirish vazifasini

yuklaydigan yangi mehnat usullarini taqozo etmoqda. Soddaroh aytganda, mehnat bozori ishlab chiqarish korxonalarini endi yangi texnologik tuzilma uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan xodimlar bilan ta'minlashda o'ta murakkab holatga keltirdi. Mehnat unumdorligi ko'p jihattan ijrochining malakasiga aloqador. Shu sababdan yangi texnikani, ish usullarini qo'llashda ishchi-xodimlar malakasini oshirish va tayyorlash yanada muhim bo'g'inga aylanmoqda. Mavzuni qiyosiy o'rganish maqsadida xorij mamlakatlari tajribasiga murojaat qilamiz. Xususan, AQSHning Pensilvaniya universitetida o'tkazilgan, 3200 dan ortiq

kompaniyani qamrab olgan tadqiqotlar orqali xodimlarni o'qitish xarajatlarini 10 foiz oshirish mehnat unumdorligini 8,5 foiz, investitsiyalar o'z sishi samaradorligini 3,8 foiz oshirish imkonini beradi, degan xulosaga kelindi. Bu mamlakatda trening va rivojlanish jamiyati hisob-kitoblariga ko'ra, xodimlarni o'qitish uchun sarflangan 1 dollar 3 dan 8 dollargacha daromad keltiradi.

Turli mamlakatlarda personalni rivojlantirish xarajatlari turlicha. Masalan, Yaponiyada kompaniyalar personal tayyorlash va qayta tayyorlashga yillik xarajatlari ish haqi fondining 10 foizdan 20 foizgacha bo'lgan qismini tashkil qiladi. Xodimlarni o'qitish ularning mehnat faoliyatida eng muhim element sifatida ko'rib chiqiladi. "Yapon mo'jizasi" sirlaridan biri ham shunda, deb xulosa beradi tadqiqotchilar.

Fransiyada esa firma har yili ish haqi miqdorining kamida 1,5 foizini xodimlarni o'qitish va tayyorlash uchun sarf qilishi kerak. Aks holda, korxonalar jarimaga tortiladi va foydalanilmagan mablag' xodimlarni o'qitish uchun markazlashtirilgan milliy jamg'armaga o'tkaziladi. Malaka oshirishdan so'ng imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tgan taqdirda xodimlar ish haqi 20 foizgacha oshishi mumkin. AQSHda kompaniyalarning trening davomida kompensatsiya to'lovlarini hisobga olgan holda xarajatlari 100 milliard dollargacha ko'tarildi. Bundan tashqari, korporatsiyalarda o'qitishning o'sishi davlat organlari talablari emas, balki korporatsiyalarning ish siyosati natijasidir.

Mamlakatimizda xodimlarni o'qitish, malakasini oshirish tegishli korxonalar yoki tashkilotning umumiy o'qitish konsepsiyasi doirasida ishlab chiqilgan. Personal uchta asosiy — bazaviy, malakaviy va lavozimga oid yo'nalish bo'yicha o'qitiladi. Ularning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan harakatlar mehnat unumdorligi darajasi o'zgarishiga, ya'ni farovonlik yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Hakim Yo'ldoshev olgan suratlar.

9-aprel — Amir Temur tavallud topgan kun

# Sohibqironning SOLIQ SIYOSATI

## bugun ham nafaqat yurtimiz, balki dunyo moliya amaliyotida keng qo'llanadi

Saltanatda turli adolatsizlik va zo'rvonliklarning oldini olish maqsadida davlat boshqaruv tizimida soliq yig'ish muddatlari ham belgilab qo'yilgan. Masalan, g'alla hosilini yig'ishdan oldin o'lpon yig'ish taqiqlangan. O'lponlarni uch muddatda to'lash belgilangan. Soliq yig'uvchi agar ehtiyoj tug'lsa, uni yig'ishda so'z va obro'sidan foydalanib harakat qilishi belgilangan bo'lib, zo'rvonlikni qo'llash taqiqlangan.

Hozirgi Markaziy Osiyo hududida ilk davlatlar eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklarda qabilalarning dastlabki siyosiy birlashuvi ortidan paydo bo'lgan. Ularning shakllanishi asosida fuqarolardan soliqning dastlabki turlari pul va natira tarzida jon boshiga va yer maydoniga qarab olingan. Bu davlat moliyasining dastlabki manbalari hisoblanadi.

**Bahodir ISROILOV,**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori



Tarixdan ma'lumki, yurtimizdan yetishib chiqqan olimlar dunyoda matematika, astronomiya, fiqh, geografiya kabi fanlar rivoji bilan birga soliq ma'muriyatchiligi yuzaga kelishi hamda bu boradagi munosabatlarni tartibga solish tizimining yaratilishiga ham katta hissa qo'shgan.

XIV asrda Amir Temur saltanat tepasiga kelgach, soliq tizimida ham keng islohotlar o'tkazildi. Ushbu davrda aholidan yer (xiroj, mol), jon boshi (juz'ya), miniladigan hayvonlar yetkazib berish (uloq), begor majburiyatlari hamda favquloddagi (avariozot) kabi soliqlar undirilgan. Binobarin, Sohibqiron moliya va soliq qonunlarini ishlab chiqishda o'zidan oldingi hukmdorlar, zamondoshlari tajribasi hamda boshqa mamlakatlar soliq tizimining ijobiy jihatlari bilan foydalanib, bu, o'z navbatida, dunyoda nafaqat soliqqa tortish va soliq ma'muriyatchiligi amaliyoti, balki ularning nazariyasi rivojiga ham katta xizmat qilgan.

Tahlillar Amir Temur soliqqa tortishda hukmdorlar amal qilishi lozim bo'lgan tamoyillarni o'z tuzuklarida oqilona bayon etgan va unga o'zi ham qat'iy amal qilgan. "Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatning qashshoqlikka tushib qolishidan saqlansinlar. Negaki raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasi kambag'allashuviga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa siphoning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Siphoning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi", deb yozadi u "Temur tuzuklari"da.

Ushbu nazariy qarashlarda Sohibqiron soliq siyosatini to'g'ri belgilash davlat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bilan birga, davlat soliq siyosatini ishlab chiqishda, avvalo, xalq

manfaatini hisobga olish zarurligini nazariy jihatdan asoslab beradi. Ana shunday tizimga asoslangan Amir Temur davlatining soliq tizimi uning buyuk imperiyasi xarajatlarini uzluksiz ta'minlab kelgan, xazinadan ilm, fan, madaniyat va obodonlashtirish ishlari uchun ham zarur mablag'lar ajratilishiga xizmat qilgan.

Saltanatda boshqa mamlakatlardan farqli ravishda soliqni hisoblab chiqish qoidalarini ham joriy etilgan. Masalan, agar dehqon doimiy ariqlar, suv quvurlari yoki oqimlar bilan sug'oriladigan yerlarga ega bo'lsa va ana shu suv uzluksiz oqib tursagina, mazkur yerlardan olinadigan daromad uchun qismga taqsimlangan. Ya'ni bunda uchdan ikki qismi yer egasiga qolgan, bir qismi esa soliq sifatida olingan. Agar yer faqat yomg'ir suvi bilan sug'orilsa, ikki qismga taqsimlangan, ulardan hosilning uchdan bir qismi yoki choragi soliq sifatida olingan.

Mazkur tartib hozirgi kunda dunyo moliya amaliyotida qo'llanib kelayotgan yerlarni ball boniteti bo'yicha soliqqa tortishning nazariy asosi hisoblanadi. Demak, ayni paytda soliq qonunchiligida qo'llanilyotgan yer solig'i ball bonitetlari aynan Amir Temur hukmronligi davridan boshlangan va soliqdar stakasini yerning unumdorlik darajasiga qarab tabaqalashtirish siyosati joriy etilgan.

O'sha davrda yangi yer o'zlashtirish ham davlat tomonidan rag'batlantirilgan. Bo'z yerga ishlav bergan va uni sug'organ, unga ko'chat ekkani yoki qarovsiz yerlarni o'zlashtirgan dehqon birinchi yili soliqdan ozod qilingan, ikkinchi yili o'zi qancha xohlasa, shuncha soliq to'lash huquqi berilgan. Ushbu masala "Temur tuzuklari"da soliqni hisoblash va undirish to'g'risidagi tartibda "Kimki biron sahrani obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartsira yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa (oliq-soliq) qonun qoidasiga muvofiq xiroj yig'sinlar" degan huquqiy me'yor belgilab qo'yilgan.

Sohibqironning soliq siyosatidagi ushbu tartib bugungi O'zbekiston soliq qonunchiligida ham o'z aksini zamonaviy asosda topgani kuzatiladi. Xususan, yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 428-moddasi talabiga ko'ra:

— qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o'zlashtirish ishlari



Soliq to'lovchilarning soliqqa tortish tartibini tanlash mezonlari bugungi kunda nafaqat O'zbekiston, balki dunyoning ko'plab mamlakatlari qonunchiligida belgilangan me'yorlar hisoblanadi.

Sohibqiron soliq ma'muriyatchiligi amalga oshirish mexanizmi sifatida davlat soliq apparatini tashkil etishga ham katta e'tibor qaratgan. O'sha davrda o'lkalari, viloyat

tartib o'zgarishsiz qoldirilgan, aks holda, daromadlar hokimidan olib qo'yilgan. Tarxon boshqaruvi yuritilayotgan viloyatlarga aholini hokimlarning zo'rvonligi va talon-tarajidan himoya qilish uchun mudir ham tayinlangan.

Saltanatda turli adolatsizlik va zo'rvonliklarning oldini olish maqsadida davlat boshqaruv tizimida soliq yig'ish muddatlari ham belgilab qo'yilgan. Masalan, g'alla hosilini yig'ishdan oldin o'lpon yig'ish taqiqlangan. O'lponlarni uch muddatda to'lash belgilangan. Soliq yig'uvchi agar ehtiyoj tug'lsa, uni yig'ishda so'z va obro'sidan foydalanib harakat qilishi belgilangan bo'lib, zo'rvonlikni qo'llash taqiqlangan.

"Xirojni yig'ish vaqti, — deyiladi "Temur tuzuklari"da, — ikki vazir tayinlansin. Biri to'plangan molni yozib, raiyat ahvolini tekshirib tursin, bo'j oluvchilar fuqaroga zulm qilib, ularning ahvoriga xaroblik yetkazmasinlar. Viloyatlarda yig'ilgan tamom mol-ashyoni kirim daftariga yozishlari lozim. Ikkinchi vazir esa chiqim daftariga yozib, yig'ilgan mollaridan siphon maoshiga taqsim qilsinlar".

Ushbu tizimning yana bir muhim tuzumi shundaki, xiroj yig'ishda ham ko'r-ko'ronalikka, pala-partishlikka yo'l qo'yilmagan, balki shaxsan Amir Temur farmoni bilan xiroj ekindan olingan hosilga, yerning unumdorligi va boshqa shart-sharoitlarga qarab belgilangan.

Mazkur misollar qonunlar o'zbek davlatchiligi tarixida, Amir Temur davrida xalq manfaatiga naqadar mos bo'lganini ko'rsatadi. Bunday adolati soliq siyosati fuqarolar manfaatiga to'la mos tushgan bo'lgina manba va adabiyotlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, D.Logofetning "Buxoro tog'liklari va tekisliklarida" asarida Amir Temurning soliq siyosati to'g'risida quyidagilar bayon etiladi:

"Uning hokimiyatida fuqarolarga adolat bilan munosabatda bo'lishadi... Biz hozir zo'r berib intilyotgan daromad solig'i degan narsa uning hokimiyatida o'shandayoq mavjud edi".

Shu o'rinda "Temur tuzuklari"ning tarixiy-huquqiy masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan professor Z.Muqimov davlat boshqaruvining barcha jihatlarida adolati ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi va Amir Temurning davlat boshqaruvi nazariy-huquqiy asoslariga baho berib, "Ehtimol, uning har bir voqeaga, har bir fuqaroga, olim-u fuzaloga, siphonga adolat bilan qaragani bir umrlik muvaffaqiyatini ta'minlagan bo'lsa kerak" degan xulosaga keladi.

Bundan tashqari, professor bugungi dunyo hamjamiyati tomonidan soliqqa tortish tamoyillari va soliq ma'muriyatchiligi asoschisi hisoblanadigan Adam Smit va boshqa G'arb olimlarining ilmiy g'oyalari, degan fikrni inkor etib, mamlakatimiz hududida mazkur nazariy-huquqiy asoslar Amir Temur tomonidan XIV asrda ishlab chiqilgan haqidagi qarashni ilgari suradi.

Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha, Amir Temur 1402-yili Anqara yonida Yildirim Boyazid ustidan g'alaba qozongandan keyin uning nomi butun Yevropaga mashhur bo'lib ketadi. Negaki shu jangdan oldinroq Boyazid Yevropa qirollarining birlashgan qo'shinini tor-mor qilgan va bu atrofdagi unga teng kela oladigan harbiy kuch qolmagandi. Shu bois, Yevropa qirollari va aholisi Temurni "Yevropa xaloskori" deb atab, uning hayoti va faoliyatiga qiziqish keskin oshib ketadi.


Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Odil Olimjonovning e'tirofi etishicha, "Yevropadagi eng yirik va nufuzli davlatlarning qirollari Buyuk Temur bilan yaqinlashishga harakat qila boshladi. Masalan, Angliya qiroli Genrix IV Temurni ulkan g'alabali bilan qutlab, unga xat yo'ladi. Karl VI "Buyuk g'olib va shonli knyaz Timurga", deb maqto'v xati yubordi. Genuyaliklar bobomizga yoqish uchun Konstantinopol yonida Temurning bayrog'ini ko'tarib qo'ydi. Gretsiya hukmdori Manuel harbiy yordam so'radi. Kastiliya qiroli Don Genrix Rui de Gonsales Klavixonni Samarqandga elchi qilib jo'natdi".

Klavixon yurtiga qaytgandan keyin "Buyuk Temur tarixi" degan asar yozadi va u kitob chop etish ixtiro qilindan so'ng 1582-yilda nashr etiladi. Sohibqiron haqida bitilgan ilk badiiy asar sifatida 1588-yili ingliz dramaturgi Kristofer Marlow tomonidan yozilgan tarixiy pyesa qayd etiladi. Nemis kompozitori Georg Gendel 1724-yili opera, amerikalik Edgar Po 1827-yili she'r yozadi.

"Tuzuki Temuriy XV-XIX asrlarda nafaqat oliynasab kishilar, balki butun jahon ilm ahli o'rtasida shuhrat topdi. Asarning qo'lyozma shaklida ham, toshbosma tarzida ham jahanon deyarli barcha kutubxonalarida borligi, shuningdek, ko'p tillarga — ingliz, fransuz, rus, urdu va hozirgi o'zbek tillariga uzluksiz tarjima qilib turilishi bunga isbotdaldidir", deb yozgan edi akademik Bo'riboy Ahmedov.

Qissadan hissa shuki, G'arb soliqchilarining "bobosi" sanalgan Vilyam Petti "Soliqlar va yig'imlar haqidagi risolasi"ni 1662-yilda, Adam Smit "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot"ni 1776-yilda, David Rikardo "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish asoslari" asarini 1817-yilda nashr ettirgan. Olimlarimiz qayd etganidek, ular o'zlarining mashhur ilmiy ishlarini chop etgan paytda Buyuk Temurni Yevropa allaqachon tanib ulgurgan, "Temur tuzuklari"ni yaxshi bilardilar edi.

Amir Temurning davlatchilik, harbiy strategiya bo'yicha g'oyalari dunyo tarixida o'z o'rniga ega va hali-hanuz o'rganib kelinadi. Sohibqironning davlat soliq siyosatining yashovchanligi uning bu boradagi jahon nazariyasi shakllanishida ham katta hissa qo'shganidan dalolat beradi.



bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

— melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

— yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'iy nazar, besh yil muddatga yer solig'idan ozod etiladi.

Kuzda ekilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan soliq imtiyoz muddatini hisoblab chiqish keyingi yilning 1-yanvaridan, bahorda ekilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi.

Bundan tashqari, Amir Temur davlatida fuqarolarga soliq to'lash tartibini tanlash huquqi ham berilgan. Bunda undan olinadigan natira solig'ining bir qismi joriy narxlar bo'yicha baholanib, pul bilan to'langan. Mazkur tartib Sohibqiron davlatiga qaram bo'lgan barcha mamlakatlarda amal qilgan. Biroq soliqqa tortishning tarixan shakllangan tizimiga ega o'lkalari o'zlarida amalda bo'lgan qoidalarni qo'llashi ham mumkin edi.

va mamlakatlarning bir qismi ularning ilgari sohiblari, amirlari, o'g'il va nevaralariga suygur'ol qilib berilgan. Suygur'ol hukmdorga uning egasiga mazkur hudud aholisidan davlat tomonidan belgilangan soliq va o'lponlarni undirish huquqini bergan. Ushbu soliq va o'lponlarning bir qismi yoki barchasi suygur'ol egasiga qoldirilgan.

Mazkur tartib ayni paytda O'zbekiston soliq qonunchiligida soliq turlarini umumiy davlat va mahalliy, Rossiya qonunchiligida federal va munitsipal, Qozog'istonda respublika va mahalliy soliqlarga bo'lishning nazariy asosi hisoblanadi, desak xato bo'lmaydi.

Ba'zi viloyatlar tul yoki tarxon boshqaruv tizimi vositasida boshqarilgan. Bunda fuqarolar alohida xizmatlari uchun hokim etib tayinlangan va ularga soliq yig'ish hamda xarajatlar hisobini yuritish huquqi berilgan. Tarxon boshqaruv usulida suygur'oldan farqli ravishda yer to'liq mulk qilib berilgan. Mazkur hududlarda daromaddani yig'ish topshirilgan har bir siphon uch yil faoliyat yuritgan. Uch yildan so'ng taftish o'tkazilib, agar viloyatning rivojlanishi va aholisi siphondan norozi bo'lmasa, amaldagi



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM  
MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrig qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Kolortpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1134.  
44543 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi keltirilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov  
Musahhib: Asliddin Abdurazaqov  
Dizayner: Xurshid Abdullayev  
Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy